




CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY

Journal homepage: <https://cajssh.centralasianstudies.org>



O'zbekistonda Inson Huquqlarini Ta'minlash, Ijtimoiy Xizmatlar Agentligi Misolida

Sirojiddinova Iroda Maxammadovna

AndMI "Gumanitar fanlar" kafedrası mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent, Andijon, O'zbekiston

Mamatazizov Faryozbek Paxlavon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti "ijtimoiy-gumanitar" fanlar kafedrası Stajor-o'qituvchi, Andijon,
O'zbekiston

Annotatsiya:

Mazkur maqolada umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligi yuzasidan o'zbekistonda inson huquqlari sohasida erishilgan yutuqlar, O'zbekistonda inson huquqlari va erkinlarining kafolatlari, PF-82ga asosan yangi faoliyat yuritayotgan Ijtimoiy xizmatlar agentligining inson huquqlarini ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan yangiliklari, kelib chiqishi, maqsadlarini ko'rib chiqadi.

ARTICLE INFO

Article history:

Received 09-Aug-23

Received in revised form 15-Aug-23

Accepted 07-Sep-23

Available online 6-Oct-2023

Kalit so'zlar: shaxsiy daxlsizlik, kasaba uyushmalari, davlat xizmati, zo'ravonlik, Deklaratsiya, fuqoro, ayollar daftari, yoshlar daftari, yagona milliy ijtimoiy ximoya, manzilli himoya, ijtimoiy davlat.

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida barcha sohalar keng qamrovli ravishda rivojlanmoqda buning nazdida aholi soni salmoqli ravishda o'sib bormoqda. Bu esa o'z navbatida aholi farovonligini ta'minlash yo'lida O'zbekiston Respublikasida amaldagi yangi taxrirlangan Konisitutsiya muxim ro'l o'ynaydi. Yangi Konisitutsiyada insonning quyidagi siyosiy huquqlari hamda erkinliklari ham ta'kidlangan: fikrlash, vijdon, din erkinligi; e'tiqod erkinligi va uni erkin ifodalash huquqi; tinch yig'ilishlar o'tkazish hamda uyushmalarga a'zo bo'lish huquqi; o'z mamlakatini boshqarishda

qatnashish huquqi; yashirin ovoz berish yo'li bilan umumiy va teng saylash huquqi; erkin ravishda ko'chib yurish hamda o'ziga turar joy tanlash huquqi; boshpana huquqi; milliy yoki diniy alomat bo'yicha hech bir cheklovsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqi; mulkka egalik qilish huquqi. Mehnat qilish huquqi, adolatli va yetarli ravishda taqdirlanish hamda mehnat uchun teng mehnat haqi olish huquqi, kasaba uyushmalari tuzish huquqi; dam olish huquqi; ijtimoiy ta'minlanish huquqi; onalik va bolalikni alohida himoyalash huquqi; ta'lim olish va madaniy hayotda qatnashish huquqi. Bu albatta O'zbekiston Respublikasidagi yashab, istiqomat qilayotgan xar bir fuqora uchun muxim ahamiyat kasb etadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi — BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan deklaratsiya. U muqaddima va 30 moddadan iborat bo'lib, uni qabul qilishdan maqsad har bir inson va davlat ustuvor vazifa qilib olishi nazarda tutilgan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi imzolagan birinchi xalqaro hujjatdir (1991-yil 30-sentabr). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining "Inson va fukarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb atalgan 2-bo'limi mazkur Deklaratsiya talablariga to'la moye bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasi barcha fuqarolari teng huquq va erkinliklarga ega bo'lishi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqe'idan qat'i nazar, qonun oddida tengligi ta'kidlangan. Respublikada inson huquqlariga oid 100 dan ortiq qonunlar qabul qilingan va ular xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiqlashtirilgan. "Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis vakili (ombudsman) to'g'risida" qonun qabul qilingan (1997-yil 24-aprel). Inson huquqlariga rioya etilishi ustidan monitoring va nazoratni ta'minlovchi milliy institutlar — Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz va Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti ishlab turibdi. Toshkent shahrida hukumatga qarashli bo'lmagan "Human Rayts Votch Xelsinki" xalqaro tashkilotining vakili, chet el ommaviy axborot vositalarining vakillari faoliyat ko'rsatmoqda hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa xalqaro tashkilotlar bilan yaqin aloqa o'rnatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2023-yil 1-iyun kuni PF-82 axoliga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish xamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida farmoni kuchga kirdi. Ushbu farmonga asosan agentlik ish faoliyati boshladi. Hozirgi vaqtda agentlikda professional ijtimoiy ximoya tizimi, ijtimoiy ximoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali axolining ko'makka muxtoj qatlamini ijtimoiylashuvini ta'minlash, ijtimoiy ximoyani maxalla darajasigacha tashkil etish, o'g'ir xayotiy axvolga tushib qolgan axoliga individual yondashuvga muvofiq ijtimoiy xizmat, axolini ijtimoiy sug'urta mexanizmlari bilan qamrab olishni kengaytirish, xavf guruhlariga tushib qolgan oilalarni aniqlash va kompleks ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish orqali ularning o'g'ir ijtimoiy axvolga tushib qolishini oldini olish, nogironligi bo'lgan shaxslarning xayot kechirishi uchun qulay muxit yaratish kabi rejalarini o'z oldiga maqsad va ustuvor vazifa sifatida qo'ygan. Agentlik tarkibi kundan-kunga kengayib o'z faoliyatini to'la-to'kis bajarish uchun faol ishlar olib borilmoqda. Agentlikda shafoflik va adolatni ta'minlash yo'lida ishga kirayotgan xar bir xodim qat'iy tartibli va bosqichli bo'lgan test va suxbatdan o'tkazilmoqda. Xar bir MFY da agentlik xodimi joylarda manzilli ijtimoiy ximoyani tashkil qilish uchun o'z ish faoliyatini olib boradi.

"Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Temir daftar", "Muruvvat " va "Saxovat" internet-uylari, shuningdek "Yagona milliy ijtimoiy ximoya" axborot tizimi ham ushbu agentlik tarkibida faoliyatini davom ettiradi.

Aholiga ko'rsatiladigan barcha turdagi ijtimoiy xizmatlar va yordamlar, shu jumladan, kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordamlar bo'yicha arizalar "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali qabul qilinadi. Axborot bazalari ma'lumotlari asosida har bir

fuqaroning iqtisodiy-ijtimoiy holati, ehtiyojlari va mavjud imkoniyatlarini aks ettiradigan ijtimoiy pasportlar joriy etilmoqda. 2023-yil 1-oktabrdan boshlab Ijtimoiy himoya agentligi huzurida Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi tuziladi. Farmonda jamg'arma mablag'larini oluvchilar hamda moliyalashtirish manbai kesimida ma'lumotlar shakllanishi va xarajat qilinishining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash nazarda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kun.uz
2. Daryo.uz
3. www.stats.uz
4. Lex.uz